


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2022- yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 34 600 tani tashkil qildi. (2021- yil 1 yanvarga nisbatan 112,4 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2022- yil 1 yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 31,0 %), sanoat sohasida (21,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (8,2 %) va qurilishda (7,1 %) tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
<b>Viloyat jami</b>	<b>4 900</b>	<b>6 469</b>
Namangan shahar	1 042	1 749
Mingbuloq	303	378
Kosonsoy	278	385
Namangan	403	444
Norin	287	389
Pop	453	405
To'raqo'rg'on	371	481
Uychi	394	455
Uchqo'rg'on	353	449
Chortoq	303	430
Chust	409	536
Yangiqo'rg'on	304	368

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1 749 ta, Chust tumanida – 536 ta, To'raqo'rg'on tumani – 481 ta, Uychi tumanida – 455 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 449 ta, Namanagan tumani – 444 ta, Chortoq tumanida – 430 ta, Pop tumanida – 405 ta, Norin, Kosonsoy va Mingbuloq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumanida – 368 tani tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda**



- |             |                 |                 |                   |
|-------------|-----------------|-----------------|-------------------|
| ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy      | ■ Namangan      | ■ Norin           |
| ■ Pop       | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi         | ■ Uchqo'rg'on     |
| ■ Chortoq   | ■ Chust         | ■ Yangiqo'rg'on | ■ Namangan shahar |


2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri – 27,0 %, Chust tumani – 8,3%, To'raqo'rg'on tumanida -7,4 %, Uychi tumani 7,0 %, Uchqurg'on – 6,9 %, Namangan tumalarida 6,9 %, Chortoq tumalarida – 6,6 % va Pop tumani – 6.3 %, tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 73,5 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 74,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 253,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 51,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 474,6 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 79,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(yanvar-dekabr oylari holatiga, foizda)



### Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi

(2021- yil yanvar-dekabr)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22 671,5	96,2
Sanoat	7 174,3	49,2
Qurilish	5 247,9	93,5
Chakana savdo	14 216,3	93,6
Yuk tashish, mln. tonna	27,2	94,0
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	423,7	97,3

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(foizda)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat jami</b>	<b>49,2</b>	<b>93,5</b>	<b>67,8</b>	<b>65,5</b>
Namangan shahar	54,9	86,5	49,5	48,3
Mingbuloq	58,4	100,0	80,8	62,6
Kosonsoy	65,2	98,4	84,3	68,0
Namangan tuman	59,0	99,3	84,2	79,0
Norin	51,2	98,1	84,1	83,5
Pop	60,8	78,8	72,9	75,2
To'raqo'rg'on	14,7	92,3	74,3	84,6
Uychi	75,4	94,0	83,1	80,3
Uchqo'rg'on	20,6	100,0	79,1	73,9
Chortoq	100,0	100,0	78,7	74,4
Chust	43,5	99,0	79,2	70,1
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	84,8	92,4

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Uychi (75,4 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Mingbuloq tumani, Uchqo'rg'on tumani, Chortoq tumani va Yangiqo'rg'on tumanlarida 100,0 %, Namangan tumani 99,3 va Chust tumanlarida 99,5 %, Norin tumani 98,1 % tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo'rg'on (84,8 %), Kosonsoy (84,3 %), Namangan tuman (84,2 %), Norin (84,1 %), Uychi (83,1 %), Mingbuloq (80,8 %), Uchqo'rg'on (79,1 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Yangiqo'rg'on (92,4 %), To'raqo'rg'on (84,6 %), Norin (83,5 %), Uychi (80,3 %) , Namangan tumanlari (79,0 %), tumanlari yuqori ulushlarni tashkil etdi.